



XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “OROMKURSI” QISSASIDA BOSH QAHRAMON BADIY PSIXOLOGIZMI

Salimova Rayxona Burxon qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o‘qitish

(o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: salimovarayxona00@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada badiiy psixologizm haqida atroflicha ma’lumot berilib, asar bosh qahramonining ichki kechinmalari va xarakteri tahlillar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy psixologizm, ichki monolog, xarakter, psixologik tahlilga oid izlanishlar, amal kursisi.

Anotatsiya: In this article, detailed information is provided about literary psychologism, and the protagonist's inner experiences and character are revealed through analytical insights

Key words: research on literary psychologism, inner monologue, character, and psychological analysis.

Adabiyot inson qalbi, uning kechinmalari va ichki dunyosini aks ettirishda eng kuchli vositalardan biridir. Badiiy asarlarda inson ruhiyatini chuqur ochib berish orqali adiblar o‘z asarlarining ta’sirchanligini yanada oshiradilar. Shundan kelib chiqib, badiiy psixologizm adabiyotshunoslikda muhim mezonlardan sanaladi. Badiiy psixologizm bu-qahramonning ichki kechimalari, ruhiy holatini tasvirlash orqali obrazning mohiyatini ochib berishga qaratilgan nozik tasvirlash mahoratidir.



Badiiy psixologizm personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari, gap-soʻzlarining psixologik jihatdan asoslanishi boʻlib, u personaj ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiluvchi qator usul, vositalarni oʻz ichiga oladi.

Rus adabiyotshunoslik ilmida ruhiyat mavzusida birinchilardan boʻlib izlanish olib borgan N.G. Chernishevskiy: “Psixologik tahlil xilma-xil boʻlishi mumkin. Bir muallif xarakter qirallarni ochib berishga urinsa, boshqasi- xarakter shakllanishiga jamiyat va turmush taʼsirini koʻrsatib beradi; uchinchi, xatti-harakatlarning his- tuygʻular bilan aloqadorligini; toʻrtinchidan, ehtiroslar tahlilini tasvirlaydi”. [1].

Oʻzbek adabiyotshunos olimlari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalasiga bagʻishlangan izlanishlar olib borgan. N.Shodiyevning “Abdulla Qahhorning asararida psixologik tahlil mahorati”, X.Umurovning “Oʻzbek romanlarida ruhiy tahlil muammosi” doktorlik dissertatsiyasi, P.Kenjayeving “Hozirgi oʻzbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari”, M.Boboxonvning “Hozirgi oʻzbek qissachiligida badiiy psixologizm” nomzodlik dissertatsiyasi shular jumlasidandir.

Xurshid Doʻstmuhammadning “Oromkursi” qissasida bosh qahramon badiiy psixologizmi “ichki monolog” shaklida berilgan boʻlib, u personajlarning modiy lashmagan, faqat ichidagina kechuvchi nutqi boʻlib, shartli ravishda uning ongida kechayotgan fikrlash(his qilish) jarayoni deb qabul qilinadi [2].

Asar bosh qahramoni Koʻklamali Tongotarov shaharga kelib, talabalik baxtiga muyassar boʻlgan yigit. Domlasining oromkursi(amalkursi)sini koʻrib, unga muhabbati uygʻonganini sezgan Koʻklamali bu holatni “Otameros kasallik” deb taxmin qiladi: “Otamdan meros kasallikmikan?!”. Bunday fikrlashiga sabab otasi haqida onasidan soʻraganida, onasi quyidagicha javob qiladi: “Otangning fikr-yodi idoradagi kursida edi. Qizil suyanchiqli oromkursilarni senlardan, mendan ortiq koʻrar edilar, rahmatli”[3].



Ko'klamali oromkursiga xuddi noziknihol qizga muomala qilgandek muloyimlik bilan xatti- harakat qilganida bir necha bor ichki "men"iga qarshi chiqishga urinadi: "Nima qilyapman?", "E, ko'zingni och-e!..Qanaqa yigitsan o'zi?!" Ammo bu qo'lidan kelmadi: "...bo'ralatib so'kmoqchi edi, lab juftlaga joyida oromkursi ozor chekkan ohudek ingrab yubordi. Ko'klamboy beso'naqay va bo'ychan gavdasiga yarashmagan xushomadgo'ylik bilan shoshilib -o'rgilib oromkursining yelkasiga qoqdi,tizginsiz mayllarini unutib stulga og'ir cho'kdi..."[4].

Ko'klamali oromkursiga mahliyo bo'lgan ko'yi kun o'tkazar, bir yillik rejasini qog'ozga tushirish u yoqda tursin, onasiga xat yozishni, uyida ijarachi bo'lib turgan kampirga bergan va'dasini, hatto ovqatlanishni-da esidan chiqargan edi. Bu o'rinda yozuvchi amal pillapoyasiga muhabbat qo'ygan inson yaqinlariga yetarli vaqt ajratmasdan, hayotning asl mazmunini unutilishiga ishora qilgan.

Qissada Ko'klamaiga dashnom beruvchi, uni ogohlantirishga qaratilgan bir nechta personajlar va ularning nutqi mavjud. Ulardan eng xarakterilisi: Nazirov domla shogirdini ancha vaqt qistab chaqirtirishlaridan so'ng uning kelganini ko'rib tubandagicha nasihat qiladi: "Har yigitga omad kulib boqadi, Ko'klamali... Avval bundayroq omad keladi, odam unga ko'nikadi, so'ng kattarog'i nasib etadi. Bonogoh tushgan omaddan uncha-buncha odamning beli mayishib ketadi... Duppa- durust, es-hushini tanigan kishilar, masalan, arzimagan mansabni egallaydi-da, ko'z ochib ko'rgan kursisiga qapishib oladi. Qapishib oldimi, bas, vazifasi, burchi bir yoqda qolib mansabdan ayrilmaslikni ko'zlaydi. Kursining etagini ko'ziga surtadigan odam hech qanday pastkashlikdan qaytmaydi..."[5].

Nazirov damlaning to'satdan aytilgan bu fikrlari Ko'klamali uchun bamisli ogohlikka chorlovchi xitobnoma edi.Bundan tashqari, maktub yozgan onasidan, ijaraga qo'yuvchi aya tomonidan qilingan nasihatlar ham bor ediki, ammo, bular ham besamar ketdi.



Ko'klamalining tabiatida o'z-o'ziga qarshi kurasholmaslik, qat'iyatsizlik kabi qusurlar yaqqol ko'zga tashlanadi. U bir necha bor qilyotgan ishlari axmoqona ekanini anglagan holda, o'zgarishga harakat qilib, buni uddalay olmaydi. Qishlog'iga ketishga, uylanishga qaror qiladi. O'g'il-qizi bo'lishini o'ylaydi. Shundan so'ng ixtiyorsiz o'g'lining baobro'bir amal kursisini egallashini niyat qiladi. So'ng sovuq terga tushib, o'zidan ijirg'anib qo'yadi. Negaki, o'zi tug'ilganida ham otasi Janobali Tongotarov xuddi shunday niyat qilganini eshitgandi, shuni eslaydi. Avlodlarinig amal kursiga o'ch bo'lishini xohlamaydi. Qarshi chora sifatida to'qqizinchi qavat ayvonidan oromkursi bilan birga sakraydi.

Xulosa shuki, dunyoning obro'-mansabiga o'ch insonlar Ko'klamali singari halokatga yuz tutadilar. Faqat va faqat obro'ketidan quvish, vaqtida o'z-o'zini idora qilib olmaslik kishini xarob qiladi. Ko'klamali bunday "yuqumli kasallik"ka davoni o'limda deb bildi. Basharti, u o'z nafsiga qarshi kurashib, yaqinlarining maslahatiga amal qilish orqali ham bu "kasallik" dan shifo topishi mumkin edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Н.Г.Чернышевский. *Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. Литературная критика. Библиотека "Огонек" М.: "Правда", 1974.* (http://azlib.ru/c/chernyshewskij_n_g/text/_0240.shtml)
2. Quronov D. *Adabiyot nazariyasi asoslari.* Noshir, Toshkent- 2019.
3. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER'S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 70.
4. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(3), 49-53.



5. Yerjanova, S., & Turayeva, D. (2023). CREATIVE LABORATORY AND ARTISTIC INTERPRETATION ISSUE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 832-841.
6. Saymuratova, I., To'rayeva, D., & Saidova, S. (2023). BADIY ASARDA TAVSIFLASH VOSITALARI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6 Part 3), 19-24.